



## MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIY MOSLASHUVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISH

Akramova Dildora

Nizomiy nomli TDPU

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedra o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqola bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga borishning boshlanishi boladan yangi ijtimoiy muhitga moslashishni, kattalar va tengdoshlar bilan aloqalarni o'rnatishni, xatti-harakatlarning moslashuvchanligini va moslashuvchan mexanizmlarini rivojlantirish xaqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о начале посещения ребенка дошкольной образовательной организации, адаптации ребенка к новой социальной среде, налаживании взаимоотношений со взрослыми и сверстниками, развитии поведенческой гибкости и адаптационных механизмов.

**Annotation:** In this state, information is presented on the beginning of the child's school educational organization, the child's adaptation to the new social environment, the adjustment of the relationship between adults and peers, the development of behavioral flexibility and adaptive mechanisms.

Hozirgi kunda ko'plab ijtimoiy muhitga moslashishda yosh bolalarda muammolar kelib chiqadi. Bunday muammolarni yechishda olimlar tadqioqt ishlarini olib borishgan. Yosh bolalarda uchraydigan muammolarning turlari sabablarini ko'rib o'tamiz.

Kundalik tartib, talablar va majburiyatlar bola uchun kutilmagan holga aylanadi va shu bilan birga uni stressli holatga keltiradi. Ba'zi bolalar uchun qiyin shart-bu guruh xonasining katta maydoni, jihozlari va odatdag'i uy sharoitidan sezilarli darajada farq qiladi.

Bunday holda, bolani xavfsizlik tuyg'usidan mahrum qilmaslik uchun uni kattalarga yaqinroq, cheklanganroq joyga qo'yish yaxshiroqdir. Bu, shuningdek, pedagogni moslashish davrida bolalarni kattalar bilan hissiy aloqada bo'lган o'ta keskin ehtiyojini qondirishga majbur qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy moslashtirishga qaratilgan dastlabki tayyorgarlikning yetishmasligi nevrologik reaksiyalarga olib kelishi mumkin:

- Emotsional holatning buzilishi;
- Uyqu va ishtahaning yomonlashishi;
- Maktabgacha ta'lim tashkiloti qo'rquvini bartaraf etish va rivojlanlantirish;
- Kasallikning kuchayishi;

Dastlab, bolaning maktabgacha ta'limiga moslashishi bu uning hayotidagi eng asosiy ijtimoiylashuvning bosqichlardan biri hisoblanadi. Bolaning jamoatga moslasha olmasligi emotsiyonal holatining boshqara olmasligini keltirib chiqaradi. Bunda masalan, bola boxchaga kelganida yeg'lashi yoki haddan tashqari onasini chaqirishi bunga misol bo'la oladi. Bunda bola faqat onaga bog'lanib qolganidan dalolat beradi. Shuning uchun ham bolani ijtimoiy muhitga va o'ziga yaqin bo'lган muhitga moslashtirish kerak. Yani, bitta onaga bog'lanib qolmaslik uchun qolgan oila a'zolari bilan ham ko'pro vaqtini o'tqazishi lozim. Undan tashqari ko'pro sayr qilish va o'zini tendoshlari bilan vaqtini o'tqzish ham kirishuvchanlikni shakillantirib boradi.

Bolaning uyqu bilan bog'liq bo'lган muammolar ham uchrab turadi. Bu kunlik rejimning yaxshi tashkil etilmaganligidan dalolat beradi. Bolaning shakillanishi uning uyqi rejimiga bog'liq. Hattoki, Yoshi katta insonlarning kunlik ehtiyojini fiziologik jarayoni muntazam garmonit ushlab turuvchi bu uyqu hisoblanadi. katta yoshdagi odamlarning uyqu normasi 8 soatdan iborat bo'lishi kerak. Yosh bolalarniki esa, ozgincha farq qiladi. Har bir yosh davrida bolalarga belgilab berilgan norma mavjud. Agar shunday normaga rioya qilsa bola sog'lom bo'ladi. Uyqusi bilan bog'langan kamchiliklar bu oila muhiti bilan bog'liq yoki quruv bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunda bolaning rivojlanish darajalari bor. Bola rivojlanayotgan davrda belgilangan tartibda olib borilishi kerak. Bolaning uyqusini ota-onva tibbiyot xodimlari nazorat qiladi.

Qo'rquv tushunchasi bolada o'zidan o'zi paydo bo'lmaydi. Qo'rquvni unga tashqi uhit ta'sirida biron bir narsa yoki biror bir shaxs o'rgatishi mumkin. Bu qanday holat? Bola yoshlidanoq yaxshi va



yomonni ajratishni bilmaydi. Hattoki, urushishni ham bilmaydigan bolalar mavjud. Nimaga deb o'ylaysiz? Sababi oddiy, chunki bolaga uni o'rgatishmaydi va ko'rsatishmaydi. Qo'rquv ham shundaydir. Turli xil kundalik hayotimizdagi jarayonlardan, video filimlardan ko'rib bola shunday qilish kerak ekan degan xulosaga keladi. Shuni qaytaradi yani, taqlid qiladi. Shundan keyin turli xil mavjudotlar ko'z o'ngida gavdalaniadi. Demak, bola ko'rganini qilar ekan. Qo'rquv ham shundan kelib chiqadi. Qo'rquvni yrngish mumkinmi? Alabtta, buni yengish mumkin. Chunki qo'rquv bu insonning tashqi muhitga bo'lgan aks ta'siridir. Bunda shaxs o'zini himoya qilish uchun shunday reaksiyalar qaytaradi. Ammo yo'q bo'lgan narsalarni bor deb hisoblash bu fantaziyaga misoldir. Bir nechta qo'rquvni yengishga yordam beradigan usullar bordir bunday usullar yosh bolajonlarga va katta yoshdagi o'smir yoshdagilarga ham yordam berishi mumkin.

Qo'rquvni yengishda qo'llaniladigan usul:

Birinchi navbatda ota-onha bilan suhbatlashish va bola bilan sihbat olib borish kerak. Aynan nimadan qo'rqishini aniqlash va kerakli bo'lgan metodlarni qo'llash kerak. Agarda bola qorong'ulikdan qo'rqa, bosqichma bosqich qo'rquvni yenguvchi metodni qo'llash lozim. Bu metod Yoshi kattalarga ham to'g'ri keladi. 1-navbatda bolani yotadigan joyini alohida qilish lozim. Bolaning honasiga televisor, yoqtirgan o'yinchoqlarini atrofiga qo'yib qo'yish kerak va yorug'lik tushib turuvchi svetilnik yoki, kiraverishni chirog'ini yoqib qo'yish lozim. Bu kabi, predmetlarni har ikki haftada kamaytirib borish lozim. agarda bola ko'nikmasa har oydan davom ettirish kerak. Masalan, yoqtirgan o'yinnchog'ini bittan olish, so'ng televizroni o'chirish. Agar bola kiraverishdagi chiroqni yoki svetiliksiz u الخل olmasa demak, shu yerda bosqichimiz to'xtaydi.

Nimaga aynan qorong'ulikdan qo'rqish va ota-onasiz uxmlay olmaslik ko'proq bolalarda kuzatiladi. Sababi, bola ota-onasi bilan birga uxmlashi va tashqi muhitdan unga ta'sir etishi, hayolan turli xil mavjudotlarni tassavur etishi, bolada qo'rquvni keltirib chiqaradi.

Bu metod- bolani yolg'iz mustaqil uxmlashga o'rgatish va qo'rquvni predmetlar orqali yengishdan iboratdir. Ko'plab shunga o'xshagan holatlarni ham ko'rishimiz mumkin hattoki, voyaga yetgan bolalarni ham haligacham yoshi kattalar bilan uxmlashi yolg'iz uxmlayolmasligi mumkin. Bunga sababchi atrofidagi katta insonlar. Bolani yoshligidanoq birga olib uxmlashi, unga ko'pro haddan tashqari avaylab asrashidan kelib chiqishi mumkin. Bilamiski, hatto tibbiyor jihatdan yosh bolaning yotog'I va kattalarning yotog', o'rinn - to'shagi alohida bo'lishi kerak. Bu gigiyrnik jihatdan juda zarur masaladir.

Bolaning ijtimoiy-psixologik moslashuvi turli yo'llar bilan sodir bo'ladi va bevosita bolaning yoshiga, sog'lig'ining holatiga, yuqori asabiy faoliyat turiga, oiladagi tarbiya uslubiga va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlarga, o'yin ko'nikmalarining rivojlanish darajasiga bog'liq. Ko'p jihatdan, mактабгача yoshdagi

bolalarning ijtimoiy moslashuvi ota-onalarning bolani bo'lajak o'zgarishlarga qanday axloqiy va jismoniy tayyorlanganiga, shuningdek, bolaning individual tipologik xususiyatlariga bog'liq xolerik va sangvinik odamlar flegmatik melanxoliklarga qaraganda tezroq moslashadi. Bolalarning ijtimoiy moslashuvini yengillashtirish uchun ota-onalar farzandlariga yoshligidan tengdoshlarva kattalar bilan muloqot qilish san'atini o'rgatishlari, to'g'ri kun tartibiga rioya qilishlari kerak. Bolaning eng kichik yoshidanoq uning mustaqilligini rag'batlantirish kerak, keyin u sog'lom va komil shaxs bo'lib o'sadi. Bolaning moslashgan birinchi belgilari:[8]

- tinch uyqu;
- boshqa bolalar bilan tayyor muloqot;
- pedagogning har qanday taklifiga adekvat javob berish;
- normal hissiy holat;

Demak, bola qanchalar sog'lom muhit va sog'lom turmush tarzida yashar ekan bolada barcha rivojlanuvchi jarayonlar normal shakillanib borar ekan. Bolada o'zaro momla madaniyati, muloqotchanglik, suhbatlashishga potensialining shakillanishi, har bir berilgan savolga dona-dona aniq javob berishi, atrofidegilani fikr mulohazzsiga diqqatini jamlay olishi, har bir hissiy holatni o'z joyida namoy etishidan iborat. Hissiyotni boshqaraolmaslik bu go'daklik paytidayoq kuzatiladigan fiziologik hodisa hisoblanadi. Ammo, mактабгача davrda bola eng kerakli hissiyotlarni sezadi va his qilib uni namoyon etadi. Masalan,



hafa bo'lsa, hafaligini namoyon etadi sizning so'roqlarizga javob bermasligi ham mumkin. Hursand bo'lsa tuzlarida tabassum namoyon bo'ladi va uni namoyon etaoladi.

Bunday hissiyotlarni namoyon etish bolalarning normal holatda shakillanayotganini va hissiyotlarini normal namoyon etishidan dalolat beradi. Bolalar sho'h bo'lishiga qaramay baqirish va baland ovozda turli xil tovushlarni chiqarishi bolaning gapirishga va so'zlarni hosil qlishga yordamchi vosita bo'lishi mumkin. Shuninh uchun bolalarga hech qachon "Og'zingni yum" degan gapni gapirish kerak emas, bolani to'g'ri yo'naltirish lozim. Jismoniy shikast yetqazish ham bolaga nisbatan uning ruhiy holatiga katta ta'sir etishi mumkin. Masalan, bolaning nutqidagi nuqsonning paydo bo'lishi, ijtimoiy jarayonga moslashaolmaslik, qo'rquvning yurqoriligi va ko'plab kasallikkarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, hozirgi kunga kelib, zamon rivojlanib borishi munosabati bilan ko'plab oila haqida va turmush rishtalarini va bolaning sog'zom bo'lishi uchun ko'plab kurslar mavjud. Hattoki, shunga oid kitoblar ham bor. Buni chuqur o'rganib erkak va ayol oila qurishga tayyor deb hisoblash mumkin. Sababi, oila bu eng oliv ne'matdir.

Maktabgacha yoshda ona tilini o'rgatish, Komenskiy xulosasiga ko'ra, – bu eng avvalo bola hayotining birinchi yilidan boshlab nutqni rivojlantirish, bo'g'inlar va so'zlarni aniq talaffuz qilish, gaplarni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzish, narsalarning nomini to'g'ri aytish va mos fikr bildirishdan iborat.[9]

Olimlarning tadqiqotlaridan birida endi tug'ilgan chaqaloqlarni bitta maxsus joyda katta qilishgan ekan, u bolalar bilan kattaroq bo'lgunga qadar suhbatlashishmaganakan va gapiririshni ham o'rgaatishmagan ekan. Shunda bolalar umuman gapirishni bilmay katta bo'lishgan ekan. Tafqiqotlar shuni ko'rsatadiga haqiqatan ham muhit bolaga ta'sir etishi va so'zlashihni o'rganish uchun insonlar tili shaxsga ta'sir etishi kuzatilgan. Xulosa qilishimiz mumkinki har bir shaxsga uning ona tilida gapirsak u shu tilga moslashadi va o'rganib boradi. Agar biz shaxsga boshqacha ya'ni shevada gapirsak u shu shevaga moslashib gapirishni o'rganadi, hatto yaqinlariga taqlid qilish orqali ularning turli xil qiliqlari va harakatlarini ham o'zlashtirib oladi. Chunki, bola shuni to'g'ri deb bilib, buni qilish kerek ekan deb qilib ko'radi va bunday holat odatiyga aylanadi. Shaxsning shakillanishida ijtimoiy muhitning ahamiyati kattadir. Bola bunday muhitda gapirishni, yurishni, harakat qilishni, taqlid qilishni o'rganadi. Shu jumladan bolaning ruhiy va jismoniy salomatligi ham ayana muhitga bog'liqdir. Muhitning sog'lomligi bolaning kelgusi davriga ham ijobjiy ta'sir etadi. Bunday tushunchalarni katta yoshdagi insonlar chuqur anglashi kerak shundagina shaxs oqil inson bo'lib katta bo'ladi. Komil insonlikga intiladi jamiyatga, el-Yurtga vidokor inson bo'lib yetishib chiqadi.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Akramova, D. (2022). ACTIVITIES OF FUTURE TEACHERS-PSYCHOLOGISTS IN THE SYSTEM OF PRESCHOOL EDUCATION. *Science and Innovation*, 1(8), 322-326.
2. Акрамова, Д. Э. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГИБКОСТИ У СТУДЕНТОВ КАК ПРОБЛЕМА СОВРЕМЕННОСТИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 13(8), 19-23.
3. Akramova, D. E., & qizi Azimova, X. D. (2023, January). MAKTABGACHA TA'LIM YO 'NALISHI TALABALARIDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 382-385).
4. Akramova, D. E., & qizi Suvonqulova, M. D. (2023, January). RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH VA MILLIY QADRIYATLAR NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 393-396).
5. Akramova, D. E., & qizi Ne'matova, S. S. (2023, January). BO 'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI OMILLAR. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 390-392).



6. Akramova, D. E., & qizi Axmedova, N. B. (2023, January). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARINING BOSHQARUV MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 386-389).
7. Акрамова, Д. Э., & Бобомуродова, О. Б. (2023, January). ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ ҲАҚИДА ТУШУНЧА. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 352-354).
8. Акрамова, Д. Э., & қизи Тожихонова, Л. У. (2023, January). ТАРБИЯ-ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК ҲОДИСА ВА ЖАРАЁН СИФАТИДА. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 375-377).
9. Акрамова, Д. Э., & қизи Бозорбоева, Д. А. (2023, January). ЖАМОА-ТАРБИЯ ОБЪЕКТИ ВА СУБЪЕКТИ СИФАТИДА. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 355-357).
10. Акрамова, Д. Э., & Йўлдошева, Н. (2023, January). ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИ МАЖМУИ. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 362-364).
11. Акрамова, Д. Э., & қизи Рахимберганова, М. М. (2023, January). ПЕДАГОГИК ЖАРАЁНДА ТАРБИЯНИНГ МАЗМУНИ. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 372-374).